

INGLIZ FANTASY ADABIYOTIDA MIFOLOGIK MAVJUDOTLARNING SEMANTIK EVOLYUTSIYASI: ELF, FENIKS VA AJDARHO OBRAZLARI MISOLIDA

Nurmatova Madina Toxir qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Email: nurmatovamadina69@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20773620>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz fantasy adabiyotida keng qo'llaniladigan mifologik mavjudotlar – elf, feniks va ajdarho obrazlarining semantik evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda ushbu obrazlarning qadimgi mifologik manbalardagi dastlabki talqinlari hamda zamonaviy fantasy adabiyotidagi yangi ma'no qatlamlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiallari sifatida qadimgi ingliz eposi "Beowulf", Edmund Spenserning "The Faerie Queene", J.R.R. Tolkiening "The Hobbit" va "The Lord of the Rings", J.K. Rowlingning "Harry Potter" turkumi tanlandi. Tahlillar natijasida elf obrazining sirli va xavfli mavjudotdan donolik va olijanoblik timsoliga, feniks obrazining qayta tug'ilish ramzidan umid va ma'naviy tiklanish timsoliga, ajdarho obrazining esa mutlaq yovuzlik belgisi maqomidan murakkab semantik funksiyalarga ega bo'lgan badiiy obrazga aylangani aniqlandi.

Kalit so'zlar: fantasy adabiyoti, mifologik obraz, elf, feniks, ajdarho, semantik evolyutsiya, Tolkien, Rowling, mifologiya.

Abstract: This article examines the semantic evolution of mythological creatures in English fantasy literature through the images of elves, phoenixes and dragons. The study compares the original mythological meanings of these creatures with their reinterpretations in modern fantasy works. The research materials include the Old English epic Beowulf, Edmund Spenser's The Faerie Queene, J.R.R. Tolkien's The Hobbit and The Lord of the Rings, and J.K. Rowling's Harry Potter series. The findings reveal that elves evolved from mysterious supernatural beings into symbols of wisdom and nobility, the phoenix transformed from a symbol of rebirth into a representation of hope and spiritual renewal, while dragons developed from embodiments of evil into complex literary figures with diverse symbolic functions.

Keywords: fantasy literature, mythological creature, elf, phoenix, dragon, semantic evolution, mythology, Tolkien, Rowling.

Аннотация: В данной статье исследуется семантическая эволюция мифологических существ в английской фэнтезийной литературе на примере образов эльфа, феникса и дракона. В исследовании проводится

сравнительный анализ первоначальных мифологических значений данных образов и их современных интерпретаций в произведениях жанра фэнтези. В качестве материала использованы эпос «Беовульф», произведение Эдмунда Спенсера «Королева фей», а также произведения Дж. Р. Р. Толкина и Дж. К. Роулинг. Результаты исследования показывают, что образ эльфа трансформировался из загадочного мифического существа в символ мудрости и благородства, феникс стал символом надежды и духовного возрождения, а дракон превратился из воплощения абсолютного зла в сложный художественный образ.

Ключевые слова: фэнтези, мифологический образ, эльф, феникс, дракон, семантическая эволюция, мифология, Толкин, Роулинг.

KIRISH

Fantasy adabiyoti XX-XXI asrlarda jahon adabiyotining eng ommabop va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu janrning muhim xususiyatlaridan biri mifologik merosga tayanishi hamda qadimgi afsona va rivoyatlardagi obrazlarni yangi badiiy shakllarda qayta talqin qilishidir [5;17]. Fantasy asarlarida qo'llaniladigan elf, feniks va ajdarho kabi mifologik mavjudotlar o'zining tarixiy ildizlarini qadimgi german-skandinav, yunon, misr va boshqa mifologik tizimlardan oladi.

Mifologik obrazlar adabiy matnda oddiy fantastik unsur bo'lib qolmay, muallifning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalovchi muhim semantik birlik vazifasini ham bajaradi [4]. Shu sababli mazkur obrazlarning tarixiy rivojlanishini o'rganish fantasy adabiyotining poetikasini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy fantasy adabiyotining shakllanishida J.R.R. Tolkien va J.K. Rowlingning o'рни alohida ahamiyatga ega. Tolkien fantasy janrining mifopoetik asoslarini yaratgan bo'lsa, Rowling ushbu an'anani yangi davr o'quvchisiga moslashtirdi [16]. Ularning asarlarida elf, feniks va ajdarho obrazlari nafaqat mifologik manbalarning davomi, balki yangi semantik mazmunlar tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz fantasy adabiyotida elf, feniks va ajdarho obrazlarining semantik evolyutsiyasini aniqlash hamda ularning mifologik manbalardan zamonaviy fantasy adabiyotigacha bo'lgan transformatsiyasini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- elf obrazining tarixiy rivojlanishini aniqlash;
- feniks obrazining semantik o'zgarishlarini tahlil qilish;

- ajdarho obrazining mifologik va badiiy funksiyalarini qiyoslash;
- Tolkien va Rovling asarlarida ushbu obrazlarning yangi talqinlarini aniqlash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, mifopoetik va matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida qadimgi ingliz eposi Beowulf, Uyg'onish davri adabiyotining yirik namunasi bo'lgan The Faerie Queene, shuningdek J.R.R. Tolkien va J.K. Rovling asarlari tanlandi.

Qiyosiy-tipologik metod yordamida mifologik obrazlarning turli tarixiy davrlardagi talqinlari o'rganildi. Semantik tahlil orqali obrazlarning ma'no transformatsiyasi aniqlanib, mifopoetik yondashuv asosida ularning fantasy adabiyotidagi funksiyalari baholandi.

Nazariy asos sifatida K.G. Jungning arxetip nazariyasi, J. Kampbellning mifologik qahramon konsepsiyasi hamda fantasy adabiyoti bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Elf obrazining semantik evolyutsiyasi

Elf obrazi german-skandinav mifologiyasining eng qadimiy mifologik mavjudotlaridan biri hisoblanadi. Dastlabki mifologik manbalarda elflar inson va tabiat o'rtasidagi chegarada yashovchi sirli mavjudotlar sifatida tasvirlangan [12]. Ular ko'pincha insonlarga yordam beruvchi yoki zarar yetkazuvchi g'ayritabiiy kuchlar sifatida talqin qilingan. Skandinav mifologiyasida yorug' elf va qorong'i elf tushunchalari mavjud bo'lib, bu obrazning ikki tomonlama semantik tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qadimgi ingliz adabiyotining muhim namunasi hisoblangan Beowulf eposida elf obrazi salbiy va xavfli kuchlar bilan bog'lanadi. Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilishicha, asarda elf obrazlari insoniyatga tahdid soluvchi g'ayritabiiy mavjudotlar qatorida tilga olinadi [3;10]. Shu sababli dastlabki bosqichda elf obrazi qo'rquv, noma'lumlik va xavf semantikasini ifodalagan.

Uyg'onish davriga kelib elf obrazining ma'nosi sezilarli darajada o'zgara boshladi. Edmund Spenserning The Faerie Queene asarida sehrlil mavjudotlar ideal go'zallik, axloqiy poklik va ma'naviy kamolot bilan bog'lanadi [11]. Natijada elf va fairy obrazlari o'rtasidagi semantik masofa qisqarib, elf obrazining salbiy ma'nolari asta-sekin yo'qola boshlaydi.

XX asr fantasy adabiyotida esa elf obrazi yangi bosqichga ko'tarildi. Tolkien tomonidan yaratilgan elf qahramonlari fantasy adabiyotidagi eng ta'sirli obrazlardan biriga aylandi. Tolkien elflarni yuksak madaniyat, estetik

mukammallik va ma'naviy donolik timsoli sifatida tasvirleydi [2]. Galadriel, Elrond va Legolas kabi qahramonlar orqali elf obrazi idealizatsiyalashgan badiiy modelga aylantiriladi.

Shunday qilib, elf obrazining semantik evolyutsiyasi uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Mifologik davr – sirli va xavfli mavjudot;
2. Uyg'onish davri – sehrli va estetik ideal;
3. Zamonaviy fantasy – donolik va olijanoblik timsoli.

Mazkur transformatsiya fantasy adabiyotining mifologik obrazlarni yangi ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarga mos ravishda qayta talqin qilish imkoniyatlarini namoyon etadi.

Feniks obrazining semantik evolyutsiyasi

Feniks dunyo mifologiyasidagi eng mashhur ramziy obrazlardan biridir. Uning ilk manbalari qadimgi Misr va Yunon mifologiyasiga borib taqaladi. Afsonalarga ko'ra, feniks ma'lum muddat yashagach, o'zini olovda yoqib yuboradi va kulidan yana qayta tiriladi [1]. Shu sababli ushbu qush qadimdan qayta tug'ilish va abadiylik ramzi sifatida talqin qilingan.

Feniks obrazining asosiy semantik yadrosi tarix davomida deyarli o'zgarmagan. Biroq uning ramziy vazifalari tobora kengayib borgan. O'rta asr diniy adabiyotida feniks Masihning tirilishi va ruhiy poklanish timsoli sifatida qo'llanilgan. Natijada obrazning diniy mazmuni kuchaygan.

Zamonaviy fantasy adabiyotida feniks yangi semantik funksiyalarga ega bo'ldi. J.K. Rowlingning Harry Potter (Garri Potter) turkumida uchraydigan Fawkes obrazi buning yorqin misolidir. Fawkes qayta tirilish xususiyatiga ega bo'lish bilan birga sadoqat, fidoyilik va umid ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi. U asar qahramonlariga yordam beradi, ularni xavfdan qutqaradi hamda axloqiy tayanch vazifasini bajaradi [9].

Feniks obrazining semantik evolyutsiyasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- Qadimgi mifologiya – abadiylik va qayta tug'ilish;
- Diniy adabiyot – ruhiy poklanish va najot;
- Zamonaviy fantasy – umid, sadoqat va ma'naviy tiklanish.

Demak, feniks obrazi o'zining asosiy semantik yadrosini saqlab qolgan holda har bir tarixiy davrda yangi ma'no qatlamlari bilan boyib borgan.

Ajdarho obrazining semantik evolyutsiyasi

Ajdarho insoniyat mifologiyasidagi eng qadimiy va universal obrazlardan biridir. Deyarli barcha sivilizatsiyalarda ajdarho haqidagi afsonalar uchraydi. Biroq Sharq va G'arb madaniyatlarida uning talqini sezilarli darajada farqlanadi.

G'arb mifologiyasida ajdarho odatda vayronkorlik, zulmat va yovuzlik timsoli hisoblangan. Qadimgi qahramonlik afsonalarida ajdarho qahramon yengishi kerak bo'lgan asosiy dushman sifatida namoyon bo'ladi. Beowulf eposidagi olov purkovchi ajdarho ana shunday klassik model hisoblanadi. U nafaqat jismoniy xavf, balki tartibsizlik va halokat ramzi sifatida ham tasvirlangan.

O'rta asr ritsarlik adabiyotida ham ajdarho yovuzlik timsoli sifatidagi mavqeini saqlab qoldi. Avliyo Georgiy haqidagi rivoyatlar va boshqa ritsarlik afsonalarida ajdarho ustidan qozonilgan g'alaba yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasini anglatadi.

Tolkien ijodida ajdarho obrazi murakkablashadi. The Hobbit asaridagi Smaug shunchaki yovuz mavjudot emas. U ochko'zlik, hokimiyatga intilish va boylikka mukkasidan ketish kabi insoniy illatlarning ramziga aylanadi. Smaugning xazina ustida yotishi uning metaforik ma'nosini yanada kuchaytiradi [13].

Rovling asarlarida esa ajdarholar mutlaq yovuz mavjudot sifatida emas, balki sehrlilik dunyoning tabiiy qismi sifatida ko'rsatiladi. Harry Potter and the Goblet of Fire asarida ajdarholar xavfli bo'lishiga qaramay, ular yovuzlikning timsoli sifatida talqin qilinmaydi. Bu esa obrazning semantik jihatdan neytrallashtirilganini ko'rsatadi.

Natijada ajdarho obrazining evolyutsiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Qadimgi mifologiya – kosmik yovuzlik va vayronkor kuch;
- O'rta asr adabiyoti – qahramonning asosiy dushmani;
- Tolkien fantasy olami – ochko'zlik va hokimiyat ramzi;
- Zamonaviy fantasy – murakkab va ko'p qirrali mavjudot.

Obrazlarning qiyosiy tahlili

Elf, feniks va ajdarho obrazlari o'rtasidagi umumiy jihat shundaki, ularning barchasi mifologik kelib chiqishga ega bo'lsa-da, fantasy adabiyotida yangi semantik mazmun bilan boyitilgan.

Elf obrazida salbiy semantika ijobiy semantikaga almashgan bo'lsa, feniks obrazida asosiy semantik yadro saqlanib qolgan. Ajdarho obrazida esa mutlaq salbiylik asta-sekin murakkab va neytral talqin bilan almashgan.

Bu holat fantasy adabiyotining mifologik merosni qayta ishlab, zamonaviy insonning estetik va falsafiy ehtiyojlariga moslashtirish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ingliz fantasy adabiyotida mifologik mavjudotlar semantikasining tarixiy taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, elf, feniks va ajdarho obrazlari fantasy janrining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida sezilarli semantik transformatsiyaga uchragan.

Elf obrazi dastlab german-skandinav mifologiyasida sirli va ba'zan xavfli mavjudot sifatida talqin qilingan bo'lsa, Uyg'onish davri adabiyotida uning estetik va axloqiy qirralari kuchaygan. J.R.R. Tolkien ijodida esa elf obrazining semantikasi tubdan yangilanib, u donolik, go'zallik va ma'naviy mukammallik timsoliga aylangan.

Feniks obrazi qadimgi mifologiyadagi qayta tug'ilish va abadiylik ramzi sifatidagi asosiy semantik mazmunini saqlab qolgan holda, zamonaviy fantasy adabiyotida umid, sadoqat va ma'naviy tiklanish kabi yangi ma'nolar bilan boyigan. J.K. Rowling tomonidan yaratilgan Fawkes obrazi ushbu transformatsiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Ajdarho obrazi esa eng katta semantik o'zgarishlarni boshdan kechirgan mifologik mavjudotlardan biridir. Qadimgi mifologiya va o'rta asr adabiyotida u mutlaq yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, Tolkien va Rowling asarlarida murakkab xarakterga ega bo'lgan ko'p qirrali badiiy obrazga aylangan. Natijada ajdarho obrazi faqat dushman emas, balki muayyan g'oyaviy va ramziy ma'nolar tashuvchisiga aylandi.

Tadqiqot natijalari fantasy adabiyotining mifologik merosni saqlab qolish bilan birga, uni yangi tarixiy-madaniy sharoitlarga mos ravishda qayta talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Elf, feniks va ajdarho obrazlarining evolyutsiyasi fantasy janrining mifologiya bilan uzviy bog'liqligini hamda uning zamonaviy adabiyotdagi ahamiyatini namoyon etadi.

Shunday qilib, ingliz fantasy adabiyotida mifologik mavjudotlarning semantik evolyutsiyasi qadimgi mifologik tasavvurlarning zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan murakkab va ko'p bosqichli jarayon ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Campbell, J. (2008). The Hero with a Thousand Faces. Novato, CA: New World Library.
- 2.Cook, S. J. (2016). Fantasy Incarnate: Of Elves and Men. Journal of Tolkien Research, 3(1).

- 3.Heaney, S. (Trans.). (2007). *Beowulf*. London: Faber & Faber.
- 4.Jung, C. G. (1990). *The Archetypes and the Collective Unconscious*. Princeton: Princeton University Press.
- 5.Mendlesohn, F. (2008). *Rhetorics of Fantasy*. Middletown: Wesleyan University Press.
- 6.Rowling, J. K. (1997). *Harry Potter and the Philosopher's Stone*. London: Bloomsbury.
- 7.Rowling, J. K. (2000). *Harry Potter and the Goblet of Fire*. London: Bloomsbury.
- 8.Rowling, J. K. (2003). *Harry Potter and the Order of the Phoenix*. London: Bloomsbury.
- 9.Rasulov, Z. I., & Bobojonov, S. U. (2024). Ingliz va o'zbek afsonalarida asosiy mifologik obrazlarning xarakterli xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 285–288.
- 10.Spenser, E. (2007). *The Faerie Queene*. Oxford: Oxford University Press.
- 11.Talbot, N. (2006). Where Do Elves Go To? Tolkien and a Fantasy Tradition. *Mythlore*, 24(3), 94–106.
- 12.Tolkien, J. R. R. (2002). *The Hobbit*. London: HarperCollins.
- 13.Tolkien, J. R. R. (2005). *The Silmarillion*. London: HarperCollins.
- 14.Tolkien, J. R. R. (2012). *The Lord of the Rings*. London: HarperCollins.
- 15.Vehkomäki, A. (2020). *Mythological Archetypes in the Legendarium of J.R.R. Tolkien and J.K. Rowling's Harry Potter Series (Master's Thesis)*. University of Oulu.
- 16.Todorov, T. (1973). *The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre*. Ithaca: Cornell University Press.